

SAID MUHAMMAD ALIM LABIB HAYOTI VA FA'OLİYATI

Olfat Islamuddin Rajab ug'li

Termiz davlat universiteti

o'zbek tili va adabiyot ta'lim yo'nalishi 4-kurs talabasi.

Email: Islamuddinolfat@gmail.com**<https://doi.org/10.5281/zenodo.15478304>**

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonamizning atoqli adibi, Afg'oniston o'zbek adabiyoti va she'riyatining yirik namoyandalardan biri Said Muhammad Alim Labibning hayoti va ilmiy-badiiy faoliyati haqida qisqacha to'xtalib o'tiladi. Unda shoirning adabiy merosi, ijodiy izlanishlari va ma'naviy-ma'rifiy qarashlari yoritilib, uning o'zbek she'riyatiga qo'shgan bebaho hissasi, xalq qalbida tutgan o'rni va adabiyot tarixidagi ahamiyati ochib beriladi.

Kalit so'zar: Said Muhammad Alim Labib, shoir va adib, Afg'oniston, she'riyat, o'zbek adabiy muhit.

Abstract. This article briefly explores the life and scholarly-literary activities of Said Muhammad Alim Labib, a distinguished contemporary writer and one of the prominent figures of Afghan Uzbek literature and poetry. It highlights his literary legacy, creative endeavors, and spiritual-intellectual outlook, emphasizing his invaluable contribution to Uzbek poetry, his place in the hearts of the people, and his significance in the history of literature.

Keywords: Said Muhammad Alim Labib, poet and writer, Afghanistan, poetry, Uzbek literary environment.

KIRISH

Hozirgi zamon o'zbek va fors-dari adabiyoti, ilm-fani, san'ati hamda tarixiga beqiyos hissa qo'shgan, serma'no fikr va nozik tuyg'ularni nafis ifodalay olgan, betakror iste'dod sohibi Said Muhammad Alim "Labib" o'zining yorqin qiyofasi bilan adabiy olamda munosib o'rin egallagan. U o'z ilmi va badiiy zakovati, nazm borasidagi chuqur tafakkuri bilan o'zbek va fors-dari she'riyatiga o'zgacha ruh, yangi nafas olib kirgan ijodkordir. Labibning yurakdan to'kilgan, ohangdor va hayotiy she'rlari, badiiy go'zallikka boy, ma'naviy yuksaklikni targ'ib qiluvchi durdona asarlari ko'plab kitobxonlar qalbidan chuqur joy egallagan. U nafaqat shoir, balki nasr yo'nalishida ham o'zini sinab ko'rgan, ilmiy-tadqiqot ishlari, maqolalari va badiiy-ijodiy asarlari orqali adabiy jamoatchilik e'tiborini qozongan ijodkor sifatida tanilgan. Ayniqsa, o'zining "Labib" taxallusi bilan xalq orasida e'tibor topgan Alim Labib Afg'oniston o'zbek she'riyatining eng yorqin yulduzlaridan biri sifatida qadrlanadi. Uning asarlarida Vatan muhabbati, xalqona donishmandlik, insonparvarlik, tarixiy xotira va ma'naviy uyg'oqlik o'z ifodasini topgan. Shunday qilib, u o'z ijodi bilan nafaqat o'zbek va fors-dari tillarida yozuvchi zamondoshlar orasida, balki butun turkiy va forsiy adabiyot ixlosmandlari orasida ham munosib hurmat-ehtiromga sazovor bo'lgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Tadqiqot davomida ilmiy bilishning obyektivlik tamoyillariga tayangan holda, fakt va manbalar asosida tahliliy yondashuv qo'llanildi. Mazkur ilmiy izlanishda Said Muhammad Alim Labibning sermazmun hayot yo'li, ijodiy faoliyati hamda uning nazmiy va nasriy asarlari chuqur tahlil qilindi. Shoirning adabiy merosi, uslubiy xususiyatlari va ma'naviy-falsafiy qarashlari ilmiy asosda o'rganilib, u yaratgan asarlarining adabiyot tarixidagi o'rni yoritib berildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

O'zbek va fors-dari tillarida yaratilgan zamonaviy adabiyot, madaniyat, san'at va tarixga she'riyat va adabiyot yo'li bilan ulkan hissa qo'shgan, qalbi va tafakkuri bilan ikki tilda o'zbek va fors-darida adabiy uyg'unlik yaratgan yirik adabiy shaxsiyat haqida so'z yuritmoqchimiz. Bu zot o'zining to'xtovsiz izlanishlari, badiiy ilhomi va chuqur bilimlari bilan nazm olamiga dadil qadam qo'ygan, she'rlarida go'zallik, ruhiy noziklik va ma'naviy teranlikni uyg'unlashtira olgan, qalblarga quvonch va ilhom baxsh etgan ijodkordir. Uning nozik ohang va ruh bilan yo'g'rilgan she'rlari nafaqat musiqiy jilolarga boy, balki ikki xalq madaniyatining qalbini birlashtiruvchi ma'naviy ko'prik vazifasini o'taydi. U o'zbek va fors-dari tillarida yozgan badiiy durdonalari bilan ko'plab kitobxonlar qalbida chuqur iz qoldirgan. Uning faqatgina she'riyat emas, balki nasr sohasida ham tahqiqiy va ilmiy maqolalari, adabiy-tarixiy asarlari bor bo'lib, ular xalq orasida keng e'tirof va ehtiromga sazovor bo'lgan.

Adabiy sohalarda "Labib" taxallusi bilan mashhur bo'lgan bu ulug' inson XX asrning birinchi yarmida Afg'oniston Islom Respublikasida zohir bo'lgan atoqli zullisonayn ya'ni ikki tilda yozuvchi, shoir, adib va tadqiqotchilardan biridir. Said Turdixon o'g'li Said Muhammad Alim Labib hijriy 1336-yilda, milodiy 1957-yilda, Afg'onistonning tarixiy va madaniy jihatdan boy hududi bo'lmish Faryob viloyatining Andxoy tumaniga qarashli Xon Chahorbog' qishlog'ida ziyoli va ruhoniylar oilada dunyoga kelgan. Ilm va adabiyatga chanqoqlik, ma'rifatga muhabbat unga bolaligidan singdirilgan. Shu bois, u yoshlik chog'laridanoq she'r va ilm ahlining suhbatlarida ulg'ayib, so'z sehrining sir-asroriga oshno bo'lgan. Bugun Said Muhammad Alim Labib nomi nafaqat Afg'oniston, balki butun turkiy va forsiy adabiyot ixlosmandlari orasida katta ehtirom va hurmat bilan tilga olinadi. Ota – onasi savodli kishilar bo'lganligi tufayli maktab yoshigacha oila muhitida Quroni-karimni va dini mavzularga oid kitoblar, forsha va turkcha mumtoz shoirlarning divonlarini o'rganishga harakat qilgan, natijada ko'zi va qo'li o'qish, yozish bilan tanishkandan so'ng, boshlang'ich ta'limni tug'ilgan joyida olgan. U 1-sinf dan 6-sinf gacha Xon Chahorbog' boshlang'ich maktabida o'qigan, 7-sinf dan boshlab esa Andxoydagi Abu Muslim nomidagi maktabiga qabul qilingan. 1976- yil Abu Muslim nomidagi maktabni a'lo baholar bilan tamomlagan. Shoir o'zi tug'ulib o'sgan makoni haqida shunday yozadi.

Andxuyim, ona tuprog'im,
Sen chiqmaysan esimdan bir dam.
Seni yo'qlab, vafing yozgani,
Oldim yana qo'limga qalam.

1976-yili Kobul universitetining Adabiyot va insoniy ilmlar fakultetining fors tili va adabiyot bo'limiga o'qishga kirdi. Shu yilning o'zida davlat tomonidan tahsilni davom ettirish uchun Rossiya Federatsiyasiga yuborildi. 1984-yili Voronej davlat universiteti filologiya fakultetida o'qishni bitirib filologiya fanlari bo'yicha magistrlik darajasini olishga erishdi. Keyinchalik Sadridin Ayniy nomidagi Tojikiston davlat pedagogika universitetida filologiya fanlari nomzadligi dissertatsiyasini himoya qilib, Rossiya federatsiyasi fan va oliy ta'lim vazirligi tomonidan filologiya fanlari nomzadi (PhD) ilmiy darjasi diplomini oldi. Labib 1984-1992 yillarda Kobul universiteti Til va adabiyot fakultetining o'zbek tili va adabiyoti bo'limida dars berib hamda kafedra mudiri vazifasini bajardi. 1993-2003-yillarda Balx universitetida, 2003-2006 yillarda Foryob oliy o'quv yurtida faoliyat yuritdi. 2001-2002 yillari orasida Balx universiteti va 2006-2008 yillar orasida esa Taxor universitetida rektorlik vazifasini ham olib bordi, 2008- 2014-yillari orasida Kobul universiteti til va adabiyot fakulteti turkologiy

kafedrasida dars berdi. 2014-yilning o'rtalaridan 2020-yilgacha Turkiya Respublikasida, Ankara universiteti Zamonaviy turk lahjalari va adabiyotlari bo'limida chet ellik ustoz sifatida tadrish qildi. Shoir o'zbek va fors-dariy tillarida ijod qilib kelmoqda uning yozgan she'rlari 1972-yildan boshlab Afg'oniston va qo'shni mamlakatlar nashriyalarida chop etilib kelmoqda. Shoirning o'zbek tilidagi she'rlarini o'z ichiga olgan birinchi she'riy to'plami «So'z injulari» nomi bilan Afg'oniston yozuvchilar uyushmasi tomonidan 1989-yil Kabulda nashr etilgan, ikkinchi she'riy to'plami «Tuyg'ularim, qayg'ularim» nomli sheriy to'plami 2005-yil, Mazori sharifda chop etilgan. Fors-dariy va o'zbek tillaridagi tanlangan she'rlari 2010-yili Mazori sharifda «Yak tasvir dar du oyina» («Ikki ko'zguda bir tasvir») nomi bilan chop etilgan edi. Forscha va o'zbek tilidagi she'rlarini o'z ichiga olgan «Gulbongi xomushiy/Jimlik nag'masi» deb nomlangan to'rtinchi she'riy to'plami esa 2021-yil ham Kobul va ham Anqarada bosilib chiqdi. «Mirzo Niyoz Balxiy» Afg'onistonlik zullisonayn shoiri haqida yozgan asari 2022-yil kobulda chop etilgan shoirning yana bir fors tilida yozilgan asari «Durhoiy-maoniy» 2024-yili Mazorisharif Mavlono matbuotida chop etilgan bulardan tashqari shoirning bir qancha sherlari qo'shiqqa aylanib hozirgi kunda butun xalqning o'rtasida shirin avozlar bilan ishutilib kelmoqda. Uning ilmi-tadqiqiy maqolalari, ilmi tarjimalari va she'rlari «Anis», «Hevod», «Nido-i- islom», «Junbush», «Roh» kabi jarida va ro'znomalar, «Ijtimo-iulum», «Balx», «Yog'du», Xuroson», «Sabo», «Chovush» kabi ilmi majallalarida bo'lganidek, Tojikistondagi ilim nashriyalarda va Turkiyadagi «Mudarn Turkluk arastirma dargisi» da nashir etilgan. Dotsent S.M. Labib adabiyot nazariyasi, adabiy-badiiy tanqid, o'zbek adabiyoti tarixi, navoiyshunoslik, tilshunoslik, tarixiy, ijtimoiy mavzularga oid bir qator risola va maqolalar muallifi hamdir. «Tazkirai Muqimxoniy», Xorazmiyning «Muhabbatnoma»si va Mavlono Lutfiy devoni kabi asarlarning tanqidiy matnini ham tayyorlab, asliy yozuvida (arab alifbosida) nashr etgan. Shayxzoda Otoy devonini ham arab alifbosida nashrga tayyorlagan. Shuni aytishimiz mumkinki Labib o'z manoviy boyligi bilan xalq o'rtasida tanilgan shu bilan birgalikda shoirning yuqirida nomi keltirilgan durdona asarlari hamda pur mazmun sherlari, o'zbek va fors tilida yozilgan sheri to'plari va boshqa qilgan ilmiy va badiiy faoliyati bilan hozirgi o'zbek adabiyatimizga katta hissa qo'shgan, Turli sharoyitlarda qilgan daqiq va muayyan adabi ishlari, o'z eli va tili uchun qilgan buyuk xizmaztlari, shirin va litofatli manzumlar; kuylashi, rostlik va sadoqat yo'llarida tutgan ezgu niyatlari va hamda yillar bo'yicha qilgan boshqa ishlari bilan o'zbek- fars adabiyotiga juda katta va ulkan hissa qo'shgan farzonalardan biri hisoblanadi.

Labib universitetlarda dars berishdan tashqari, 1995- yildan 1998- yil bahorigacha Mozori Sharif shahrida chop etilgan Amir Alishir Navoiy madaniy jamiyatining "Yag'du" (Nur) nomli adabiy-madaniy oylik jurnalining bosh muharriri ham bo'lgan. Adib o'zbek va dariy tillarida she'r yozadi uning yozgan she'rlari 1972- yildan buyon mamlakat poytaxti Kobul va ayrim velayatlar matbuotida hamda qo'shni mamlakatlarda chiqayotgan bazi bir nashriyalarda chop etilib kelmoqda. Uning o'zbek tilidagi sherlaridan bir to'plam «so'z injulari» nomi bilan Afg'oniston yozuvchilari uyushmasi tomonidan 1989-yilda nashr etilgan edi, ikkinchi majmuasi «Tug'ularim, qayg'ularim» envoni ostida 2005- yil Mazorsharif shahrida chopdan chiqdi ushbu to'plam esa shoirning o'zbek va dariy tillaridagi sherlaridan tanlangan parchalarni o'z ichiga oladi. Keyingi yillarda ham zamonaviy shoirlarning bir qator she'riy to'plamlari uning tahriri va so'zboshi bilan chop etilgan.

Ustoz Labib Kobul, Faryob, Javzjon, Taxar va Bag'lon universitetlari hamda Afg'oniston Fanlar akademiyasining ko'plab ilmiy xodimlarining ilmiy tadqiqot ishlarida rahbarlik qilgan.

Adib asosan o'zbek va dariy tillarida ijod qilgan biroq uning rus tilidagi ijod namunalari ham uchratishimiz mumkin forsiy-dariy va o'zbek (o'zbekcha) turk tilida she'rlar yozgan. Uning ilk she'ri (Buyuk maqsad) nomi bilan 1972-yildan boshlab Afg'oniston matbuotida chop etilgan.

Uning o'zbek tilidagi ikkita she'riy to'plami:

1. **“So‘z Injuluri”** (So‘z marvaridlari) – 1989- yilda Afg'oniston yozuvchilar uyushmasi tomonidan Kobulda chop etilgan kitob 2000 jilddan iborat.

Asardan bir parcha she'r:

Da'vo bila kimsa o'z haddidan ortiq,

So'zda ulush olmas rasdidan ortiq.

Bu nuktani ko'zda tut o'qirdi nomim,

Kim yo'qman adabda muftadidan ortiq.

2. **“Tuyg'ularim, Qayg'ularim”** (Mening hissiyotlarim va g'amlarim) –2005-yilda Baxtar madaniy jamg'armasi va nashriyoti tomonidan Mozori Sharif shahrida chop etilgan kitob o'zi 1000 nixsadan iborat. Shuningdek, uning forsiy-dariy va o'zbek tilidagi she'rlaridan iborat (Ikki ko'zguda bir tasvir) nomli to'plami 2009-yilda (2010 yil boshlarida) chop etilib, adabiyot ixlosmandlari va she'riyat shaydolariga taqdim etilgan.

Labib va uning adabiy-tanqidiy faoliyati

Muallifning ijodlari adabiyot nazoriyasi adabiy- badiiy tanqid, o'zbek adabiyot tarixi, tilshunoslik va shu kabi tarixi, ijtimoiy mavzularga oid bir qator resola va maqolalarning muallifi hamdir. Hamda shu mavzularda bo'lgan ko'p asarlarning chit tili manbalaridan dariy va o'zbek tillariga tarjima qilib nashrga topshirgan. Uning ilmi-tahqiqi asarlari hamda ilmiy tarjimalari jumladan: “Anis” “Hivod” “Nidoyisлом” “Junbish” “Roh” va boshqa jarida jurnallar “Erfon” “Ijtimoiy ulum” “Balx” “Yog'du” “Sabo” “Xurasaon” va “Chavush” kabi ilmiy va adabiy mujallalarda bosilib chiqqan.

Shoirning she'rlarida doimo go'zallikka muhabbat, insoniyat g'urbatidan shikoyat va yolg'izlikdan ohu-faryod, shuningdek, ma'naviy haqiqatga yetishish intilishlarini o'zida aks ettiradi. She'riyat—inson fitratining oshkora yoki yashirin timsolidir. Zero, inson “o'z aslidan uzoqlashganida, yana unga qaytish umidida bo'ladi”. Shu bois shoirning burchi—atrofdagi haqiqatlarni aks ettirish, hayotning achchiq va shirin voqeliklarini yoritish, inson orzu-umidlarini ifoda etish va moddiy olam bilan ruhiy olam o'rtasida bog'liqlik yaratishdir. Bu mas'uliyat shoirlarga yuklatilgan. She'riyat inson ma'naviyatining eng yuqori timsollaridan biri bo'lib, qadimgi Eron, bugungi Afg'oniston va Markaziy Osiyo madaniyatining ajralmas qismidir. Biz she'r bilan yashab kelganmiz, u orqali nafas olib, dunyoni anglaganmiz. She'riyat inson qalbidagi tub hissiyotlar bilan bog'liq bo'lib, insoniyat hayotining muhim ramzlarini o'zida jamlaydi. O'quvchilar she'riy matnga kirib, uning tashqi go'zalligi, til va musiqiyiligini anglagan sari shoirning ichki kechinmalari va fikr olamini yanada chuqurroq his qilishadi. Aristoteldan tortib bugungi kunga qadar shoirlar, faylasuflar va adabiyot nazariyotchilari she'r mohiyatini turlicha ta'riflashgan. Ularning ba'zilar she'rning tasviriy kuchini, ba'zilar esa uning inson hayotiga bo'lgan ta'sirini ta'kidlagan. Biroq, biz she'riyat sirlarini to'liq anglay oldikmi? Javob, shubhasiz, yo'q! Aynan shu noma'lumlik va sirli jihatlar she'riyatni betakror bir san'atga aylantirgan.

Umuman olganda Labibning she'riyati klassik adabiyot an'analariga asoslangan bo'lsa-da, u shaxsiy va o'ziga xos uslubni yaratishga intilgan. Uning she'rlari orasida masnaviy, g'azal, qasida, ruboiy, musammat va nima yo'nalishidagi she'rlar uchraydi.

U klassik uslubda mahorat bilan ijod qilgan bo'lib, bu borada katta muvaffaqiyatga erishgan. Biroq, Labib shunchaki an'analarni takrorlamaydi. Uning she'rlari shaxsiy kechinmalar, ichki iztiroblar va hayotiy tajribalar bilan boyitilgan. U jamiyatdagi muammolar va o'z kechinmalarini ijodiy ifoda etib, til va uslubda tabiiylikka intiladi.

Shoirning she'riyatidagi mavzular

Labibning she'riyati gumanistik qadriyatlar, insoniylik, tabiat, go'zallik va muhabbatga asoslangan. Uning til va uslubidagi go'zallik shoirning ichki olamini aks ettirib, she'riyatini yanada mazmunli qiladi. Uning insonparvarligi va axloqiy pokligi she'rlarida ham o'z ifodasini topgan. Bugungi adabiy tanqid faqat shoir shaxsini emas, balki asarning o'zini tahlil qilishga e'tibor qaratadi. Biroq psixologik va sotsiologik tahlil orqali shoirning she'riy olami bilan uning shaxsiyati o'rtasidagi bog'liqlikni ham tushunish mumkin.

Shoirning adabiy va ilmiy faoliyati

Said Muhammad Alem Labib zamonaviy o'zbek va fors-dariy tillarida ijod qiluvchi taniqli shoir, adabiyotshunos va tarjimon sifatida tanilgan. Uning she'riy faoliyati 1972-yillardan boshlab Afg'oniston va unga qo'shni mintaqalardagi nashriyotlarda chop etila boshlagan.

Shoirning o'zbek tilida yozilgan sherlarini jamlagan ilk to'plam «**So'z injulari**» 1989-yilda Kobul shahrida chop etilgan bo'lib, ushbu sheri to'plam 28 ta g'azalni o'z ichiga qamrab olgan. Keyinchalik «**Tuyg'ularim, qayg'ularim**» (2005, yil Mozori Sharif) nomli ikkinchi to'plami nashr qilingan. Ushbu sheri to'plam 4 qism va 43 sheri bobdan iborat bu sherlarning ichida g'azal, qasida, ruboiy muxammas shu kabi janrlarda yozgan sherlari kiritilgan. Labibning ikki tilda yozilgan tanlangan she'rlari 2010-yilda «**Yaktasvir dar du oyina**» («**Ikki ko'zguda bir tasvir**») nomi bilan Mozori Sharifda chop etilgan. Unda shoirning o'zbekcha va dariy tilidagi eng saralangan she'rlari jamlangan. Bu to'plamda shoirning 90 bo'lak Forscha va 115 bo'lak O'zbekcha she'ri o'rin olgan. (oldingi ikki to'plamdan ham bir muncha she'rlar bu to'plamga kiritilgan). Shuningdek, 2021-yilda uning forsiy va o'zbek tillaridagi tanlangan asarlari «**Gulbongi xomushiy**» («**Jimlik nag'masi**») nomi bilan Kobul va Anqara shaharlarida nashr etilgan. Labibning saylangan forsiy-dariy tilidagi she'rlari alohida to'plam holida «**Durhoi ma'oniy**» («**Ma'no injulari**») nomi bilan 2024-yilda Istanbul shahrida chop etilgan ushbu to'plam 95 bob she'rlarni o'z ichiga olgan bir katta to'plam bo'lib shoirning fors tilida yozgan har turdagi sherlari, janr va sana'tlarda yozilgan sherlardan iborat. Labib she'rlarida tazod, tanosub, ihem, jinos, laf va nashr, talmih kabi lafziy va ma'naviy san'atlar keng qo'llangan. Masalan, quyidagi baytda *sabza, gul, nastarin* so'zlari o'zaro ma'naviy tanosubda ishlatilgan:

Fors tili misolida:

«Habad az giyohi harza in gulistoni manz

To sabza jushad u gul, ham nastarin baroyad»

Shuningdek, Labib she'rlarida talmih san'ati ham yaqqol seziladi. Misol uchun, quyidagi baytda:

O'zbekcha sher misolida:

«Ruxt gitinamo oyina va ko'zing jahonbin jam

Ey ko'ngil saltanatining Iskandari va Jamshidim, qayt!»

Shoir bu yerda Iskandar va Jamshid kabi afsonaviy qahramonlarga ishora qilib, o'quvchini fors adabiyotining hamasiy va afsonaviy matnlariga murojaat qilishga undaydi. Said Muhammad Alem Labib nafaqat shoir, balki faol ilmiy izlanish olib borayotgan adabiyotshunos olim sifatida ham e'tirof etiladi.

U adabiyot nazariyasi, adabiy-badiiy tanqid, o‘zbek adabiyoti tarixi, navoiyshunoslik, tilshunoslik, tarixiy va ijtimoiy mavzularga oid ilmiy risolalar va maqolalar muallifi hisoblanadi.

U tomonidan “**Tazkirai Muqimxoniy**”, Xorazmiyning **«Muhabbatnoma»**si va Mavlono Lutfiy devoni kabi muhim asarlarning tanqidiy matnlari tayyorlangan va ular arab yozuvidagi asl shaklida chop etilgan.

Labib ko‘p tilli olim sifatida ham alohida e‘tiborga loyiq: u fors, pashtu, rus, ingliz va turk tillarini puxta egallagan bo‘lib, arab tili grammatikasi asoslarini ham chuqur biladi. Uning ilmiy va adabiy merosi nafaqat Afg‘oniston, balki butun Markaziy Osiyo madaniy va ilmiy muhitida muhim o‘rin egallaydi.

A) Kitoblar:

1. **Mavlono Lutfiy Hiraviy hayoti va adabiy merosi** *Kobul universiteti, Til va adabiyot fakulteti, 1992*— Mavlono Lutfiy Hiraviyning hayoti va asarlari haqida tadqiqiy asar. O‘rta asr turkiy adabiyotining yirik namoyandalaridan birining ilmiy tahlili.

2. **Adabiy tanqid mavzuida bir izlanish** *Balx universiteti, Adabiyot va gumanitar fanlar fakulteti, 2002* — Adabiy tanqid yo‘nalishida yozilgan ilmiy izlanish. Zamonaviy adabiy tahlil metodlariga oid.

3. **Adabiyot nazariyasi (darslik)** *Kobul: “Qadim Xuroson” nashriyoti, 2020* — O‘zbek tilida yozilgan adabiyot nazariyasiga oid darslik. Akademiklar va talabalar uchun foydali manba.

4. **Navoiy asarlari timsollari dunyosiga sayohat “Oydi” madaniy uyushmasi nashriyoti, Matbaai Kotib, Kobul, 2011-yilda chop etilgan.** — Alisher Navoiy tavalludining 570 yilligiga bag‘ishlangan maqolalar to‘plami. Navoiy ijodidagi timsollarni tahlil qiladi.

5. **O‘zbek tili va adabiyoti (10-sinf darsligi)** *Kobul: Afg‘oniston maorif vazirligi nashriyoti, 2012*— O‘rta maktab o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan darslik. O‘zbek tilining asoslari va adabiyotidan tanlangan matnlar kiritilgan.

6. **Mirzo Niyoziy Balxiy va uning XIX asr Afg‘oniston fors va o‘zbek adabiyotidagi roli** *(Ph.D dissertatsiyasi, S. Ayniy nomidagi Tojikiston davlat pedagogika universiteti, 2017)* — XIX asr Afg‘oniston adabiyotida muhim o‘rin tutgan adib Mirzo Niyoziy Balxiy haqida ilmiy ish. Tojik va rus tillarida yozilgan.

7. **Zindagoniy va ofaridahoi Alisher Navoiy** *(Dr. Azizullo Arral bilan hamkorlikda), Kobul: “Voja” chopxonasi, 1403/2025* — Alisher Navoiy hayoti va ijodiyoti forsiy (dariy) tilida yoritilgan. Xalqaro ilmiy hamkorlik mahsuli.

Afg‘onistonda O‘zbek Adabiyoti va Tilshunosligi Sohasidagi Tadqiqotlar:

Bibliografik Tahlil

Afg‘oniston o‘zbeklari orasida adabiyot va tilshunoslik sohasida olib borilgan ilmiy izlanishlar mintaqadagi madaniy va ilmiy hayotning ajralmas qismidir. Quyida keltirilgan asarlar bu sohadagi yirik tadqiqotlarni, darsliklarni va adabiy tanqid namunalarini o‘z ichiga oladi.

Mavlono Lutfiy Hiraviy ijodi va hayoti, Afg‘oniston ilmiy muhitida alohida e‘tibor qozongan. Kobul universiteti Til va adabiyot fakultetida 1992-yilda chop etilgan “**Mavlono Lutfiy Hiraviy hayoti va adabiy merosi**” nomli tadqiqiy asarda shoirning hayoti, adabiy qarashlari va asarlari keng yoritilgan. Bu asar o‘rta asr turkiy adabiyotini o‘rganishda muhim manba sifatida xizmat qiladi. 2002-yilda Balx universitetining Adabiyot va gumanitar fanlar fakultetida taqdim etilgan “**Adabiy tanqid mavzuida bir izlanish**” asari esa o‘zbek adabiyotshunosligida tanqid nazariyalarining shakllanishi va qo‘llanilishi masalalarini o‘rganishga bag‘ishlangan.

Adabiyot nazariyasi masalalariga bag'ishlangan yana bir muhim manba bu **“Adabiyot nazariyasi”** darsligidir (Kobul: Qadim Xuroson nashriyoti, 2020). Ushbu darslik o'zbek adabiyotshunosligining nazariy asoslarini o'rgatishda keng qo'llaniladi. Alisher Navoiy ijodi ham Afg'onistonda faol o'rganilayotgan mavzulardan biridir. 2011-yilda “Oydi” madaniy uyushmasi tomonidan chop etilgan **“Navoiy asarlari timsollari dunyosiga sayohat”** nomli maqolalar to'plamida buyuk mutafakkir ijodidagi timsollar, obrazlar va badiiy tafakkur tahlil qilingan. Mazkur to'plam Alisher Navoiy tavalludining 570 yilligiga bag'ishlangan. Afg'oniston maktablari uchun mo'ljallangan **“O'zbek tili va adabiyoti”** (10-sinf o'quvchilari uchun darslik, Kobul: Afg'oniston maorif vazirligi nashriyoti, 2012) asari esa o'zbek tilining normativ asoslari va adabiy namunalarini yosh avlodga yetkazish maqsadida tayyorlangan bo'lib, darslik sifatida ahamiyatlidir. O'zbek va fors tillarining o'zaro ta'sirini o'rganishda **“Mirzo Niyoziy Balxiy va uning XIX asr Afg'oniston fors va o'zbek adabiyotidagi roli”** nomli Ph.D dissertatsiyasi alohida e'tiborga loyiq. Ushbu tadqiqot 2017-yilda S.Ayniy nomidagi Tojikiston davlat pedagogika universiteti huzurida yozilgan bo'lib, XIX asr adabiy jarayonlarini yoritadi. So'nggi yillarda esa Alisher Navoiy merosi forsiy (dariy) tilida ham o'rganilmoqda. Dr. Azizullo Arral bilan hamkorlikda yozilgan va 1403/2025-yilda “Voja” chopxonasida nashr etilgan **“Zindagoniy va ofaridahoi Alisher Navoiy”** asari Navoiy hayoti va ijodini forsiy til o'quvchilariga tanishtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Umuman olganda, ushbu manbalar Afg'onistondagi o'zbek adabiyoti, adabiyotshunosligi va tilshunoslik sohasida olib borilayotgan ilmiy izlanishlar salmog'ini ko'rsatadi. Mazkur asarlar zamonaviy o'zbek adabiyotining shaxlanishida va yosh avlodni ona tili va adabiyotga hurmat ruhida tarbiyalashda katta o'rin tutadi.

B) Maqolalardan bir qismi: Muallif o'zbek, tojik, forsiy, va rus tillarida adabiyotshunoslik, tilshunoslik, tanqidchilik hamda madaniyatshunoslik sohalarida 40dan ortiq maqolalar nashr etgan.

V) She'r to'plamlari: Muallif o'zbekcha va forscha she'rlardan iborat bir necha she'r to'plamlarini ham nashr etgan:

1. *“So'z injulari”* – Tanlangan o'zbekcha she'rlar (Kobul, 1989).
2. *“Tuyg'ularim, qayg'ularim”* – O'zbek tilidagi she'rlar to'plami (Mazori Sharif, 2005).
3. *“Yak tasvir dar du oyina / Ikki ko'zguda bir tasvir”* – O'zbekcha va forscha she'rlar (Mazori Sharif, 2010).
4. *“Gulbongi xomushiy / Jimlik nag'masi”* – O'zbekcha va forscha she'rlar (Kobul, 2020).
5. *“Durhoi ma'niy”* – Saylangan dariy she'rlar (Istanbul, 2024).

XULOSA

Ushbu tadqiqi risolada yoritilgan turli bahs va manzumalardan ma'lum bo'lishicha, ma'oni kalomining ustoz ulug' zullisonayin shoir, mutafakkir va yozuchi; hurmatli ustoz Said Muhammad Alim Labib taxminan o'zining ko'proq yoshini ijod bilan o'tkazgan. Turli sharoyitlarda qilgan daqiq va muayyan adabi ishlari, o'z eli va tili uchun qilgan buyuk xizmaztlari, shirin va litofatli manzumalari; kuylashi, rostlik va sadoqat yo'llarida tutgan ezgu niyatlari va hamda yillar bo'yicha qilgan boshqa ishlari bilan o'zbek- fars adabiyotiga juda katta va ulkan hissa qo'shgan farzonalardan biri hisoblanadi. Shoirning she'rlari chuqur falsafiy va ma'naviy kechinmalarni o'zida aks ettiradi. U an'anaviy ruboiy va g'azal shakllarida yozsa-da, ularning mohiyatini zamonaviy mazmun bilan boyitgan. Uning badiiy tasvirlari, tasavvufiy va romantik mavzulari she'riyatini yanada ta'sirchan qiladi.

Afg'oniston she'riyati Eron adabiyoti bilan chambarchas bog'liq bo'lib, zamonaviy adabiy tendensiyalar bilan boyib bormoqda.

Labib esa klassik adabiyot an'alarini saqlab qolgan holda o'ziga xos uslub yaratgan ijodkordir. Uning she'riyati ko'p qirrali bo'lib, sevgi, tasavvuf, falsafa va zamonaviy hayotga oid mavzularni qamrab oladi. U o'zining ijodiy yondashuvi, poetik tajribasi va falsafiy qarashlari bilan zamonaviy o'zbek va forsiy she'riyatida o'z o'niga ega. So'z yakunida, shoirga ijodiy muvaffaqiyat va Afg'oniston xalqi uchun tinchlik va barqarorlik tilayman!

REFERENCES

1. "So'z Injuluri" (So'z marvaridlari) – 1989- yilda Afg'oniston yozuvchilar uyushmasi tomonidan Kobulda chop etilgan kitob 2000 jilddan iborat.
2. Tuyg'ularim Qayg'ularim–2005-yilda Baxtar madaniy jamg'armasi va nashriyoti tomonidan Mozori Sharif shahr.
3. Said Muhammad Alim Labibning Zahiriddin Muhammad Boburning g'azallariga nazira (1986) iyun oyi.
4. Nadim, M.H., 2021. ETHNOCULTURAL SITUATION OF UZBEK PEOPLE IN NORTHERN AFGHANISTAN. *Theoretical & Applied Science*, 6, pp.490-492.
5. "Ikki ko'zguda bir tasvir", 2010-yil, 114-115-betlar 84.
6. M.H.H. Foryobiy "ko'rkam chinor" Anqara T. 2021.
7. Humayun, Nadeem Muhammad. "ALISHER NAVOIYING «HAYRATUL-ABROR» DOSTONIGA ISHLANGAN «HAMMOMDAGI UCHRASHUV» MINIATYURASIGA SHARH VA NAVOIY QURDIRGAN BA'ZI INSHOOTLAR." *Philological research: language, literature, education* 9.10 (2024).
8. Nadim, Muhammad Humayun. "ETNOREALIALARNING MILLIY ETNOGRAFIK LEKSIKADA AKS ETISHI (Afg'oniston o'zbeklari misolida)." *Philological research: language, literature, education* 5, no. 5 (2024): 20-23.